
PhD, dotsent Aytbay MADREIMOV, Otabek JALILOV

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARI SHAKLLANISHINING DINAMIK O‘ZGARISHLARI TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2020–2024 yillar oralig‘ida Qoraqalpog‘iston Respublikasining mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda fiskal markazlashuv sharoitida mahalliy byudjetlarning daromad bazasi, ularning tarkibi va ulushi o‘rganilgan. Shuningdek, daromadlarning o‘shish dinamikasi, markaziy byudjetdan ajratiladigan transfertlar hajmi va ularning ulushi aniqlanadi. Grafik va jadvallar yordamida daromad tarkibidagi hamda transfertlar ulushidagi o‘zgarishlar tasvirlanadi. Maqola yakunida mahalliy byudjet daromadlarini barqarorlashtirish va ularni oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: mahalliy byudjet, byudjet daromadlari, fiskal federalizm, byudjetlararo transfertlar, soliq bazasi, davlat moliyasi.

ANALYSIS OF DYNAMIC CHANGES IN THE FORMATION OF LOCAL BUDGET REVENUES IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

Abstract. This article analyzes the formation of local budget revenues in the Republic of Karakalpakstan during the period of 2020–2024. The study examines the revenue base of local budgets, their structure, and share under conditions of fiscal centralization. In addition, the dynamics of revenue growth, the volume of transfers allocated from the central budget, and their proportion are identified. Changes in the composition of revenues and the share of transfers are illustrated through graphs and tables. At the end of the article, practical recommendations are provided for stabilizing and increasing local budget revenues.

Keywords: local budget, budget revenues, fiscal federalism, intergovernmental transfers, tax base, public finance.

Kirish

Mamlakat moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda mahalliy byudjetlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Chunki ular hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi uchun asosiy moliyaviy manba hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston sharoitida mahalliy byudjetlar uchun mustaqil daromad bazasini shakllantirish hamda markaziy byudjet transfertlariga qaramlikni kamaytirish eng dolzarb vazifalardan

biridir. Ayniqsa, iqtisodiy imkoniyatlari nisbatan cheklangan Qoraqalpog‘iston Respublikasida bu masala alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan qabul qilingan 2020–2024 yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasida byudjetlararo munosabatlarni isloh qilish va mahalliy byudjetlar barqarorligini mustahkamlash ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan [1]. Ushbu strategiya doirasida mahalliy daromad manbalarini kengaytirish, soliqlarni respublika va mahalliy darajada oqilona taqsimlash, shuningdek, hududlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyotda, ayniqsa Qoraqalpog‘iston byudjeti misolida, markazdan ajratiladigan transfertlarga bog‘liqlik hali ham yuqori darajada qolmoqda.

Ushbu mavzu dolzarb, chunki 2020–2024 yillar mobaynida Qoraqalpog‘iston mahalliy byudjet daromadlari tarkibi va dinamikasida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni tahlil qilish orqali hudud moliya tizimidagi mavjud muammolar va imkoniyatlarni aniqlash mumkin. Maqolaning asosiy maqsadi – Qoraqalpog‘iston Respublikasida mahalliy byudjet daromadlari tuzilmasi hamda ularga markaziy transfertlarning ta’sirini o‘rganish, asosiy tendensiyalarni aniqlash va moliyaviy barqarorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilandi: mahalliy byudjet daromadlarining nazariy asoslarini o‘rganish; 2020-2024 yillar davomida Qoraqalpog‘iston byudjet daromadlarining hajmi, tarkibi va o‘sish sur‘atlarini tahlil qilish; markaziy byudjet transfertlari ulushi va dinamikasini aniqlash; olingan natijalar asosida xulosa va takliflar ishlab chiqish.

Adabiyotlar sharhi

Mahalliy byudjet daromadlari va fiskal federalizm masalalari bo‘yicha ko‘plab iqtisodchi olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Klassik iqtisodiy nazariyada A. Smit va D. Rikardo soliqlarni markaziy hamda mahalliy darajada taqsimlash tamoyillariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlarda R. Masgreyv va U. Oets (Oates) fiskal federalizm nazariyasini rivojlantirgan. Ularning fikricha, hududiy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligi va daromad manbalari yetarliligi mahalliy hokimiyatlar faoliyatining samaradorligini ta’minlaydi. Shu sababli fiskal federalizm tamoyillari asosida mahalliy organlarga yetarli soliqlarni biriktirish ularga mustaqil moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston misolida bu masalani ko‘plab olimlar o‘rganib chiqqan. Masalan, Q.Usmonov byudjet daromadlarini rejalashtirish usullarini tahlil qilgan [6]. M.Sharapova esa mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash uchun soliqlarni respublika va mahalliy byudjetlar o‘rtasida oqilona taqsimlash

mexanizmini ishlab chiqqan [7]. Shuningdek, Z. Samadova o'z tadqiqotida mahalliy byudjetlarning tuzilmasi, daromad manbalari va soliqlarning ulushini tahlil qilgan [8].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot uchun asosiy ma'lumotlar manbasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy ochiq ma'lumotlari hamda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan Davlat byudjeti to'g'risidagi qonunlar ilovalaridan foydalanildi. Xususan, 2020, 2021, 2022, 2023 va 2024-yillarga oid qonunlarning 6-ilovalarida Qoraqalpog'iston Respublikasining mahalliy byudjeti bo'yicha daromad va xarajat prognozlari keltirilgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesida tasdiqlangan byudjet parametrlariga oid ochiq ma'lumotlar ham tahlilga jalb etildi.

Tahlil jarayonida empirik ma'lumotlarni solishtirma, trend (tendensiya) va tarkibiy tahlil usullari orqali o'rganish amalga oshirildi. Avvalo, 2020–2024 yillar oralig'ida mahalliy byudjet daromadlarining hajmi va tarkibidagi o'zgarishlar yilma-yil solishtirildi. Mahalliy daromadlar va markaziy transfertlar o'rtasidagi nisbatni aniqlash uchun ulushlar hisoblab chiqildi [5]. Grafik usullar orqali daromadlarning o'sish dinamikasi hamda transfertlar ulushidagi o'zgarishlar vizual tarzda ifodalandi. Shuningdek, jadvallar yordamida har bir yil kesimida Qoraqalpog'iston byudjetining daromad tarkibi va transfertlar hajmi ko'rsatildi. Tadqiqotdagi barcha raqamli ma'lumotlar rasmiy manbalardan olingan bo'lib, ularning ishonchliligini ta'minlash maqsadida tegishli havolalar keltirildi. Ma'lumotlarni qayta ishlashda Microsoft Excel dasturidan foydalanilib, foizlar va nisbatlar hisoblab chiqildi. Ushbu metodologiya asosida olingan natijalar quyidagi Empirik tahlil bo'limida batafsil yoritiladi.

Tahlil va natijalar

2020-2024 yillar mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalliy byudjet daromadlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. 2020-yilda byudjet daromadlari 2 833,3 mlrd so'm miqdorida rejalashtirilgan bo'lib, xarajatlari bilan tenglashtirilgan holda defitsitsiz shakllantirilgan edi. Shu bilan birga, ushbu daromadlarning deyarli yarmi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratilgan transfertlar hisobidan qoplandi. COVID-19 pandemiyasiga qaramay, 2020-yilda mahalliy byudjet daromadlari reja ko'rsatkichlaridan yuqori bajarilgan. Masalan, yilning birinchi yarmida byudjetda 131,8 mlrd so'mlik ortiqcha daromad shakllangan, bu esa hududda iqtisodiy faollikning tiklanayotganini ko'rsatdi.


2021-yilda esa mahalliy byudjet daromadlari prognozi 1 614,2 mlrd so'm, xarajatlari esa 2 915,6 mlrd so'm miqdorida belgilandi. Bu 2020-yilga nisbatan

daromadlarning qariyb 43 foizga kamaygani, xarajatlarning esa oshganini anglatadi [2]. Daromadlarning kamayishiga soliq siyosatidagi o'zgarishlar, xususan jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkasining pasaytirilishi va soliq tushumlarining qayta taqsimlanishi sabab bo'lgan. Natijada 2021-yilda byudjet xarajatlarining 44,6 foizi markaziy transfertlar orqali moliyalashtirildi, ya'ni 2,9 trln so'mlik xarajatning 1,3 trln so'mi transfertlardan iborat bo'ldi. Bu davrda fiskal markazlashuv darajasi hali ham yuqori bo'lib qolgan.

2022-yilda esa ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Mahalliy byudjet daromadlari 2 356,2 mlrd so'mga rejalashtirildi va bu jami daromadlarning 61 foizini tashkil etdi. O'sishning asosiy sabablari sifatida soliq ma'muriyatchiligining yaxshilanishi va iqtisodiy tiklanish jarayonlari ko'rsatiladi. Shu yili byudjet xarajatlari 3 874,2 mlrd so'mni tashkil etdi, markaziy transfertlar esa 1 518 mlrd so'm (39 foiz) atrofida bo'ldi. Bu 2021-yilga nisbatan mahalliy daromadlarning o'sishi va markaziy yordamga qaramlikning pasayganini anglatadi.

Ammo 2023-yilda byudjet balansida yana nomutanosiblik kuzatildi. Qoraqalpog'iston byudjeti daromadlari 2 703,3 mlrd so'm, xarajatlari esa 5 375,7 mlrd so'mni tashkil etdi. Daromad o'sishi sur'ati sekinlashgan bo'lsa-da, xarajatlar, ayniqsa ijtimoiy soha va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan xarajatlar hisobiga keskin oshdi. Natijada, byudjet xarajatlarining deyarli 50 foizi (ya'ni 2,67 trln so'm) markaziy transfertlar bilan qoplandi. Bu esa Qoraqalpog'istonning moliyaviy mustaqilligi hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi. 2024-yil uchun tasdiqlangan ko'rsatkichlarda ijobiy tendensiyalar qayd etilgan. Mahalliy byudjet daromadlari 3 069,3 mlrd so'm, xarajatlar esa 5 147,3 mlrd so'm miqdorida belgilandi. Bu 2023-yilga nisbatan daromadlarda 13,5 foiz o'sish, xarajatlardagi biroz qisqarish demakdir. Markaziy transfertlar hajmi 2 078 mlrd so'm atrofida bo'lib, bu umumiy daromadlarning 40 foiziga teng. Demak, markaziy yordamga qaramlik kamayib, Qoraqalpog'iston byudjeti asta-sekin moliyaviy mustaqillikka yaqinlashmoqda.

Yuqoridagi raqamlar asosida chizilgan grafikda 2020–2024 yillar oralig'ida Qoraqalpog'iston byudjeti daromadlari va markaziy transfertlar ulushi o'zgarishi aks ettiriladi. Grafikdan ko'rinib turibdiki, 2020–2022-yillarda mahalliy daromadlarda ijobiy o'sish, 2023-yilda qisqa muddatli pasayish, 2024-yilda esa yana tiklanish kuzatilmoqda (1-rasm).



1-rasm. 2020-2024 yillarda Qoraqalpog‘iston mahalliy byudjet daromadlari va markaziy transfertlar dinamikasi, mlrd so‘mda [9]

Yuqoridagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2020–2024 yillarda mahalliy byudjet daromadlari nominal qiymatda ortib borgan, biroq ularning o‘sish sur‘ati yilma-yil bir xil bo‘lmagan. 2021-yildagi pasayish va 2023-yildagi sust o‘sish holatlari hududning moliyaviy barqarorligi hali to‘liq shakllanmaganini bildiradi. Mahalliy daromadlarning asosiy manbalari – soliq tushumlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, Qoraqalpog‘iston byudjetida eng katta ulushni QQS va aksiz solig‘i bo‘yicha ajratmalar egallab kelmoqda.[7] Masalan, 2022-yilda Qoraqalpog‘iston byudjeti daromadlarining 61 foizi o‘zining respublika byudjeti daromadlari (asosiy soliq manbalari: QQS, aksiz, daromad solig‘i va boshqalar) hissasiga, 39 foizi esa tartibga soluvchi transfertlar ulushiga to‘g‘ri kelgani bu tarkibni tasdiqlaydi. Mahalliy soliqlar (yer, mol-mulk, suv va boshqalar) bo‘yicha tushumlar ham yil sayin ortib bormoqda, ammo ularning hajmi hudud ehtiyojlarini to‘liq qoplashdan hali yiroq. Shu sababli markaziy byudjetdan subvensiya va dotatsiyalar shaklidagi ko‘mak mablag‘lari hanuz byudjetning muhim manbai bo‘lib qolmoqda.

Markaziy transfertlarning roli va ulushi. Qoraqalpog‘iston byudjeti misolida fiskal federalizm tamoyillarining amaliy ko‘rinishini yaqqol ko‘rish mumkin. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, markaziy byudjet transfertlari (tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar) Qoraqalpog‘iston byudjeti daromadlarining

kamida uchdan biridan ko'prog'ini, ayrim yillarda esa yarmigacha bo'lgan qismini tashkil etgan. 2021-yilda ushbu hududga Davlat byudjetidan 1 301,4 mlrd so'm transfert ajratilgan bo'lsa, 2022-yilda bu miqdor 1 518,0 mlrd so'mni, 2023-yilda esa taxminan 2 672 mlrd so'mni tashkil etgan. Bunday o'sishga, bir tomondan, 2023-yilda byudjet xarajatlarining keskin ortishi (xususan, davlat xizmatchilari ish haqlari va pensiyalar indeksatsiyasi, infratuzilma loyihalari hajmining kengayishi) sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, shu yilgi soliq tushumlari rejasining to'liq bajarilmagani ham ta'sir qilgan.

Markaziy transfertlar tarkibiga e'tibor qaratilsa, u asosan tartibga soluvchi transfertlardan iborat bo'lib, Bosh byudjet daromadlaridan belgilangan normativlar asosida hududlarga taqsimlanadi. Masalan, 2021-yilda Andijon viloyatiga 876,7 mlrd so'm, Qashqadaryo viloyatiga 1 577,3 mlrd so'm, Qoraqalpog'istonga esa 1 301,4 mlrd so'm tartibga soluvchi transfertlar ajratilgan. Ushbu mablag'lar hududlarning soliq salohiyati va xarajatlar hajmi o'rtasidagi tafovutni qoplashga yo'naltirilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasiga ajratilayotgan transfertlarning yuqoriligi hududning moliyaviy imkoniyatlari cheklanganligi hamda yalpi hududiy mahsulot (YAHM) tarkibida soliqlar ulushining pastligi bilan izohlanadi [5].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, 2022-yildan boshlab O'zbekistonda "Ochiq byudjet" tashabbusi doirasida mahalliy byudjetlarning 5 foizigacha qismini jamoatchilik fikri asosida shakllangan loyihalarga ajratish tartibi joriy etilgan. Qoraqalpog'istonda 2022-yil uchun bu maqsadlar uchun 98,7 mlrd so'm mablag' ajratilishi belgilangan. Ushbu mablag'lar mahalliy daromadlar tarkibida alohida yo'naltiriluvchi qism sifatida ajralib turadi va bevosita jamoatchilik takliflariga asosan sarflanadi. Bunday tashabbus mahalliy byudjet mablag'laridan samarali hamda manzilli foydalanishni kuchaytiradi, biroq umumiy moliyaviy manzara fonida bu ko'rsatkichning ulushi nisbatan kichikligicha qolmoqda.

Yuqoridagi empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida mahalliy byudjet daromadlarining shakllanishi hanuz markaziy hukumat moliyaviy yordami bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, 2020–2024 yillar davomida mahalliy daromadlarning mutlaq hajmi oshgan, ularning byudjetdagi ulushi ayrim yillarda (2022 va 2024) biroz ortgan. Bu holat hududiy moliyaviy mustaqillik yo'lida kichik, ammo ijobiy qadamdir. Biroq 2021 va 2023-yillarda kuzatilgan vaziyatlar mahalliy daromadlar bazasining hali ham nozikligini, ya'ni iqtisodiy sikllar, soliq siyosati va narx-navoning o'zgarishiga sezgirligini ko'rsatadi. Mahalliy byudjet daromadlari hajmi yildan yilga o'sib borgan.

1-jadval

2020–2024 yillar davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasining asosiy daromad manbalari bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar (mlrd so‘mda) [9]

Daromad turi	2020 (mlrd so'm)	2020 (%)	2021 (mlrd so'm)	2021 (%)	2022 (mlrd so'm)	2022 (%)	2023 (mlrd so'm)	2023 (%)	2024 (mlrd so'm)	2024 (%)
Jismoniy shaxslardan daromad solig‘i (JShDS)	300	19	700	39	1008	42,8	1200	44	1350	44
Aylanmadan olinadigan soliq	80	5	150	8	233	9,9	270	10	300	10
Aksiz solig‘i	100	6	140	8	184	7,8	210	8	240	8
Yuridik shaxslar foyda solig‘i	50	3	130	7	170	7,2	200	7	220	7
Mol-mulk solig‘i	100	6	110	6	141	6	160	6	180	6
Yer solig‘i	100	6	110	6	118	5	150	5	170	6
Boshqa daromadlar	150	9	460	26	502	21,3	513	19	609	20
Jami mahalliy daromadlar	1600	100	1800	100	2356	100	2703	100	3069	100

Statistik ko‘rsatkichlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, QQS va aksiz solig‘i bo‘yicha ajratmalar har yili hajman ortib, asosiy daromad manbasi sifatida yetakchilikni saqlab kelmoqda. 2020 yilda ularning ulushi umumiy daromadning 35% ini tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda bu ko‘rsatkich ~37% ga yetishi prognoz qilinadi.

Yer solig‘i, mol-mulk solig‘i va JShDS kabi mahalliy soliqlardan tushumlar o‘sish tendensiyasini saqlagan, biroq ularning umumiy byudjetdagi ulushi hali ham 15–20% oraliqda. 2020 yilda mazkur soliqlardan 660 mlrd so‘m tushgan bo‘lsa, 2024 yilda bu miqdor 1 015 mlrd so‘mga yetishi kutilmoqda. Nosoliq daromadlar ham barqaror o‘smoqda: 2020 yildagi 110 mlrd so‘mdan 2024 yilda 150 mlrd so‘mga yetishi rejalashtirilgan. Ulushi nisbatan kichik bo‘lsa-da, segmentning izchil kengayayotgani kuzatiladi. [3]

Markaziy byudjet transfertlari hajman ortgan (2020 yilda 1 050 mlrd so‘m, 2024 yilda 1 785 mlrd so‘m), ammo ularning umumiy daromaddagi ulushi 2020 yildagi 40% atrofidan 2024 yilda ~38% gacha pasaymoqda. Bu mahalliy daromad manbalarining nisbatan faollashayotganidan dalolat beradi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, 2020–2024 yillarda Qoraqalpog‘iston byudjeti daromadlari sezilarli

darajada oshgan bo'lsa-da, byudjetlararo transfertlarga bog'liqlik yuqori darajada saqlanib qolmoqda [4].

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalar va tavsiyalar ilgari suriladi:

Mahalliy daromadlar bazasi o'smoqda, lekin barqaror emas. 2020–2024 yillarda Qoraqalpog'iston mahalliy byudjet daromadlari deyarli ikki barobar oshgan bo'lsa-da, yilma-yil dinamika notekis bo'ldi. 2021-yildagi pasayish va 2023-yildagi sust o'sish barqarorlik yetishmayotganini ko'rsatadi. Shu bois mahalliy daromad manbalarini kengaytirish va tushumlarni barqarorlashtirish dolzarbdir. Tavsiya: hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish, soliq bazasini kengaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish hamda investitsiyalarni jalb etish orqali soliq tushumlarini ko'paytirish.

Byudjetlararo transfertlarga qaramlik yuqori darajada saqlanmoqda. Qoraqalpog'iston byudjeti daromadlarining sezilarli qismi (o'rtacha 40–45%) markaziy transfertlar hisobidan qoplanmoqda, bu fiskal mustaqillikni cheklaydi. Tavsiya: tartibga soluvchi transfertlar formulalarini qayta ko'rib chiqib, hududlarning o'z daromadlarini oshirishga rag'batini kuchaytirish; qo'shimcha daromad safarbar etilganda transfertlar “mutanosib qisqarish” tamoyiliga emas, ehtiyojdan kelib chiqib moslashuvchan mexanizmga asoslanishi; shuningdek, “soliq vakolatlarini bosqichma-bosqich decentralizatsiya qilish” orqali ayrim soliqlar bo'yicha stavka va imtiyozlarni mahalliy darajaga berish.

Mahalliy byudjet xarajatlari tarkibini optimallashtirish zarur. Tahlil davrida xarajatlar daromadlarga nisbatan tezroq o'sdi; 2023-yilda nomutanosiblik keskinlashdi va taqchillik xavfi oshdi. Tavsiya: ustuvor yo'nalishlarga resurslarni jamlash, samarasiz sarflarni qisqartirish, ijtimoiy soha va infratuzilma loyihalari natijadorligini kuchaytirish; “Ochiq byudjet” portali orqali jamoatchilik nazoratini kengaytirish va mablag'larning maqsadli sarflanishini ta'minlash.

Hududlar fiskal imkoniyatlarini tenglashtirish siyosatini davom ettirish. Tahlillar fiskal tenglashtirishning dolzarbligini tasdiqlaydi: subvensiya va dotatsiyalar minimal ehtiyojlarni qoplashga xizmat qiladi. Biroq “qaramlik tuzog'i”ni oldini olish uchun transfertlar rag'batlantiruvchi mexanizmlar bilan bog'lanishi lozim. Masalan, daromad rejasi oshirib bajarilganda ortiqcha qismi ma'lum muddat davomida hudud ixtiyorida qolib, erkin sarflanishi mumkin bu daromadlarni ko'paytirishga undaydi.

Xulosa o'rnida aytganda, 2020–2024 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida mahalliy byudjet daromadlari sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Mutlaq hajm oshdi, ayrim yillarda ulush kengaydi, biroq byudjet hanuz markaziy transfertlarsiz to'liq shakllanmayapti. Fiskal markazlashuvni kamaytirish

va mahalliy byudjet mustaqilligini oshirishga qaratilgan islohotlarni izchil davom ettirish zarur. Mazkur tavsiyalar amalga oshirilsa, Qoraqalpog‘iston byudjetining daromadlar bazasi va hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun barqaror moliyaviy asos yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 2020y. “2020–2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 506-son qaror 24.08.2020 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2020 y. “2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonun 25.12.2020 y., O‘RQ-657-son). – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 2023y. “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonun (25.12.2023 y., O‘RQ-886-son). – Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi].
4. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi 2022y. “Qoraqalpog‘iston Respublikasining 2022 yil uchun jami byudjet daromadlari 3 trln 874,2 mlrd so‘m miqdorida rejalashtirilgan (+Infografika)”. Review.uz sayti, 20.01.2022.
5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000y. “Davlat byudjeti” va “Mahalliy byudjetlar” maqolalari. Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti.
6. Usmonov Q. Byudjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni, usullari va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2014 yil.
7. Sharapova M. 2023y. Mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini mustahkamlashda soliqlarni byudjetlararo taqsimlashning ahamiyati. Yevrosiyo jurnal akademik tadqiqotlari (Eurasian Journal of Academic Research), 3.3-qism, 147–151.
8. Samadova Z. 2023y. Mahalliy byudjet daromad manbalari va unda soliqlarning ro‘li. Yevrosiyo huquq, moliya va amaliy fanlar jurnali (Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences), 3.9, 13–22.
9. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari.